

INNOVATIONS IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исломиiddинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Kichik biznes statistik hisobotlarida akt lardan foydalanish samaradorligi va takomillashtirish yo'llari

Arzikulov Otabek Ali o'g'li

Эффективность и пути улучшения использования ИКТ в статистической отчетности малого бизнесан

Арзикулов Отабек Али оглы

Effectiveness and ways to improve the use of ict in small business statistical reporting

Arzikulov Otabek Ali oglu

Received: May 19, 2025 Revised: May 20, 2025 ■ Accepted: May 20, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida e-Stat 3.0 avtomatlashtirilgan axborot tizimining statistik hisobotlarni samarali boshqarishdagi rolini o'rganadi. Raqamli transformatsiya ma'lumot yig'ish va qayta ishlash jarayonlarini rivojlantirgan bo'lsa-da, iqtisodiy samaradorlik, ma'lumotlar aniqligi va foydalanuvchilarning tizimga integratsiyasi bo'yicha muammolar saqlanib qolmoqda. Tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil usullari qo'llanilib, avtomatlashtirishning vaqtni tejash, xarajatlarni kamaytirish va ma'lumotlar ishonchliligini oshirishdagi ta'siri baholandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli hisobot berish ma'muriy yuklamani kamaytiradi, statistik ma'lumotlarning aniqligini oshiradi va boshqaruv jarayonlarini samarali qiladi. Biroq, axborot xavfsizligi, infratuzilma va xabardorlik darajasi bo'yicha to'siqlar saqlanmoqda. Tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, kichik biznesni raqamlashtirish strategiyalari va davlat siyosatini takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.
- **Kalit so'zlar:** kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, statistik hisobot, e-Stat 3.0, avtomatlashtirish, iqtisodiy samaradorlik, raqamli transformatsiya, axborot xavfsizligi, ma'lumotlar aniqligi, boshqaruv jarayonlari, innovatsion texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot.
- **Аннотация:** В данном исследовании рассматривается роль автоматизированной информационной системы e-Stat 3.0 в эффективном управлении статистической отчетностью в малом бизнесе и частном предпринимательстве. Несмотря на то, что цифровая трансформация усовершенствовала процессы сбора и обработки данных, остаются проблемы с точки зрения экономической эффективности, точности данных и интеграции пользователей в систему. В исследовании использовались методы качественного и количественного анализа для оценки влияния автоматизации на экономию времени, снижение затрат и повышение надежности данных. Результаты показывают, что цифровая отчетность снижает административную нагрузку, повышает точность статистических данных и делает процессы управления более

эффективными. Однако сохраняются препятствия в плане информационной безопасности, инфраструктуры и осведомленности. Результаты исследований служат важной научной основой для развития цифровой экономики, разработки стратегий цифровизации малого бизнеса и совершенствования государственной политики.

- **Ключевые слова:** малый бизнес, частное предпринимательство, статистическая отчетность, e-Stat 3.0, автоматизация, экономическая эффективность, цифровая трансформация, информационная безопасность, точность данных, процессы управления, инновационные технологии, цифровая экономика.
- **Abstract:** This study examines the role of the e-Stat 3.0 automated information system in the effective management of statistical reports in small business and private entrepreneurship. Although digital transformation has improved the processes of data collection and processing, problems remain in terms of economic efficiency, data accuracy, and user integration into the system. The study used qualitative and quantitative analysis methods to assess the impact of automation on saving time, reducing costs, and increasing data reliability. The results show that digital reporting reduces the administrative burden, increases the accuracy of statistical data, and makes management processes more efficient. However, barriers remain in terms of information security, infrastructure, and awareness. The results of the study provide an important scientific basis for developing the digital economy, improving strategies for digitizing small businesses, and improving public policy. serves as.
- **Keywords:** small business, private entrepreneurship, statistical reporting, e-Stat 3.0, automation, economic efficiency, digital transformation, information security, data accuracy, management processes, innovative technologies, digital economy.

■ KIRISH

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni boshqarishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Statistik hisobotlarning avtomatlashtirilishi, ayniqsa e-Stat 3.0 tizimi orqali, ma'lumot yig'ish va tahlil qilish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirdi. Ushbu tizim kichik korxonalar va tadbirkorlik subyektlariga elektron shaklda hisobot topshirish imkoniyatini taqdim etib, vaqt va moliyaviy resurslarni tejash, shuningdek, inson xatolarini kamaytirishga yordam bermoqda. Biroq, raqamlashtirish jarayonida texnik infratuzilma, foydalanuvchilar tayyorgarligi va axborot xavfsizligi bilan bog'liq muammolar mavjud. Nazariy jihatdan, iqtisodiy samaradorlik va texnologik innovatsiyalar o'rtasidagi bog'liqlik raqamli iqtisodiyot va axborot tizimlari nazariyalari orqali tushuntiriladi. Schumpeterning innovatsion rivojlanish nazariyasiga ko'ra, raqamli texnologiyalar biznes jarayonlarini takomillashtirish va bozor raqobatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, porterning raqobatbardoshlik nazariyasi kichik biznesning texnologik yangiliklardan foydalanishi orqali iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini ko'rsatadi. Biroq, statistik ma'lumotlarni avtomatlashtirish va kichik biznesda AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)ni qo'llash bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha rivojlanmagan, bu esa mavzuning dolzarbligini ta'kidlaydi. Avvalgi tadqiqotlar kichik biznesda AKT dan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini o'rgangan bo'lsa-da, ularning aksariyati yirik korxonalar va davlat statistika tizimlariga qaratilgan.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekistonda AKT vositalarining kichik biznes hisobotlarida qo'llanish samaradorligi bo'yicha maxsus empirik tadqiqotlar yetarli emas. Shu sababli, ushbu tadqiqotda kichik biznes statistik hisobotlarida e-Stat 3.0 tizimini qo'llash samaradorligi va u bilan bog'liq muammolar chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi sifat va miqdoriy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Sifat tahlili AKT joriy etish jarayonida uchraydigan asosiy to'siqlarni aniqlash uchun intervyu va ekspert baholarini o'z ichiga oladi [1]. Miqdoriy tahlil esa elektron hisobot tizimi orqali vaqt va resurs tejash ko'rsatkichlarini baholash uchun statistik ma'lumotlarga asoslanadi. Ushbu usullar yordamida kichik biznes subyektlari tomonidan avtomatlashtirilgan tizimlarning qabul qilinishi va foydalanish samaradorligi baholanadi. Tadqiqot natijalari elektron hisobot tizimining kichik biznesda iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi o'rnini yoritib beradi. Kutilyotgan natijalarga ko'ra, raqamli hisobot tizimlari ma'muriy xarajatlarni kamaytirish, ma'lumotlar sifatini yaxshilash va biznes boshqaruv jarayonlarini soddalashtirishga yordam beradi. Ushbu natijalar asosida kichik biznes uchun raqamli texnologiyalarni samarali tatbiq etish strategiyalari va davlat siyosatining takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot kichik biznes subyektlari, iqtisodiy siyosat yurituvchilar va texnologiya ishlab chiquvchilar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining statistik hisobotlarini avtomatlashtirish jarayonini baholashga qaratilgan bo'lib, e-Stat 3.0 tizimining iqtisodiy samaradorligi va boshqaruv jarayonlariga ta'sirini o'rganishga asoslanadi. Tadqiqotda sifat va miqdoriy yondashuvlar uyg'unlikda qo'llanildi, chunki kichik biznesda AKT texnologiyalaridan foydalanish darajasini baholashda ikki yo'nalishning ham o'ziga xos ustunliklari mavjud. Sifat tahlili orqali kichik biznes vakillarining avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish bo'yicha tajribasi, duch kelayotgan muammolari va tizimdan kutilayotgan natijalari o'rganildi. Shu maqsadda tadbirkorlar, davlat statistika idoralari xodimlari hamda AKT mutaxassislari bilan intervyular va so'rovnoma-lar o'tkazildi [2]. Ushbu ma'lumotlar kichik biznes subyektlari tomonidan elektron hisob berish tizimining qabul qilinishi, undan foydalanishdagi qiyinchiliklar va tizim samaradorligini oshirish uchun qanday chora-tadbirlar zarurligini aniqlashga imkon berdi. Miqdoriy tahlil doirasida kichik biznes subyektlari tomonidan elektron hisob berish tizimidan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi an'anaviy hisob berish usullari bilan taqqoslanib o'rganildi. Tadqiqot uchun kichik biznes vakillari tomonidan foydalanilayotgan hisob berish tizimlari va ularga bog'liq xarajatlar hisoblab chiqildi. Jumladan, an'anaviy hisob berish tizimi orqali sarflanayotgan vaqt, inson resurslari, qog'oz va boshqa material xarajatlari elektron tizim orqali amalga oshirilayotgan hisob berish bilan solishtirildi. Shu bilan birga, e-Stat 3.0 tizimining vaqt tejash, ma'lumotlar ishonchligini oshirish va boshqaruv samaradorligini yaxshilash borasidagi afzalliklari baholandi. Statistik hisob-kitoblar asosida elektron tizimdan foydalanish natijasida tadbirkorlar va davlat idoralari uchun vaqt va resurslarni tejash ko'rsatkichlari aniqlandi. Shuningdek, tadqiqot davomida SWOT-tahlil usuli qo'llanilib, kichik biznes subyektlari uchun elektron hisob berish tizimlarining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda xavf-xatarlar tahlil qilindi. Kichik biznesning raqamli transformatsiyasini to'liq amalga oshirishda duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar, jumladan, texnologik infratuzilmaning to'liq shakllanmagan, axborot xavfsizligi bo'yicha xavotirlar va AKT bo'yicha malaka yetishmovchiligi kabi omillar chuqur o'rganildi [3]. Ushbu yondashuv yordamida elektron hisob berish tizimining amaliyotda qanday natijalar berayotganini baholash va uning imkoniyatlarini kengaytirish yo'llarini aniqlash imkoniyati yaratildi. Tadqiqot natijalarini mustahkamlash maqsadida kichik biznes subyektlarining elektron tizimlardan foydalanish darajasi bo'yicha so'rov o'tkazildi. Ushbu so'rovlar yordamida kichik biznes vakillarining e-Stat 3.0 tizimidan foydalanishga bo'lgan qiziqishi, tizimning afzalliklari va

kamchiliklari, shuningdek, qanday o'zgarishlar kiritish lozimligi bo'yicha fikrlari yig'ildi.

Natijalarga ko'ra, kichik biznes subyektlarining aksariyati elektron tizimlardan foydalanishning qulayligi va samaradorligini yuqori baholagan bo'lsa-da, texnik infratuzilma, dasturiy ta'minot va texnik qo'llab-quvvatlash tizimining yaxshilanishga ehtiyoji borligini ta'kidlaganlar. Bundan tashqari, tadqiqotda xalqaro tajriba o'rganilib, kichik biznesning raqamli transformatsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirgan davlatlarning amaliyotlari tahlil qilindi. Janubiy Koreya, Germaniya, AQSh va Xitoy kabi mamlakatlarda kichik biznes subyektlarining elektron hisob berish tizimlariga moslashishi va ulardan samarali foydalanishi bo'yicha muvaffaqiyatli strategiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu tajribalar O'zbekiston sharoitida ham qo'llash imkoniyatlari bo'yicha baholandi. Jumladan, ushbu davlatlarda kichik biznes subyektlariga AKT bo'yicha maxsus ta'lim dasturlari, soliq yengilliklari va davlat tomonidan raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar taklif etilgan.

Tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvlaridan yana biri iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash bo'lib, bu usul orqali elektron hisob berish tizimlaridan foydalanish natijasida tadbirkorlar va davlat idoralari uchun qanday foyda keltirishi aniqlandi.


Elektron tizim joriy etilishi natijasida hisobot topshirish jarayonida vaqt tejash, ma'lumotlarni qayta ishlash tezligi, inson xatolarining kamayishi va operatsion xarajatlarning pasayishi kabi ko'rsatkichlar baholandi. Bu borada tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlari uchun elektron tizimlardan foydalanish darajasini oshirish zarurligini tasdiqladi. Umuman olganda, ushbu tadqiqot kichik biznes uchun elektron hisob berish tizimlarining iqtisodiy samaradorligini baholash, ularni amaliyotga tatbiq etishning asosiy qiyinchiliklarini aniqlash va tizimni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asos yaratishga xizmat qildi. Tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlari, davlat statistika idoralari va AKT mutaxassislari uchun elektron hisob berish tizimlarini rivojlantirish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi. Ushbu yondashuv kichik biznesda raqamli transformatsiyani jadallashtirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha muhim ilmiy va amaliy natijalar berishini ko'rsatdi [4]. Kelgusida olib boriladigan tadqiqotlar kichik biznes subyektlarining raqamli tizimlarga moslashish darajasini yanada chuqur o'rganish, xalqaro tajriba bilan taqqoslash va yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish yo'nalishida olib borilishi zarur. Shu bilan birga, elektron tizimlardan foydalanish samaradorligini oshirish va kichik biznes vakillariga AKT bo'yicha ko'proq bilim va resurslar taqdim etish kelajak tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. Ushbu tadqiqot natijalari kichik biznesning

raqamli rivojlanishi, iqtisodiy samaradorlik va AKT imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan strategiyalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlarining e-Stat

3.0 tizimi orqali statistik hisobot topshirish samaradorligi bo'yicha muhim ma'lumotlarni taqdim etdi. Hisobot topshirish jarayonida elektron tizimdan foydalanish an'anaviy usullarga nisbatan sezilarli ustunliklarni ko'rsatdi, xususan, vaqt va xarajat jihatidan sezilarli tejash ta'minlandi. e-Stat 3.0 tizimi foydalanuvchilarga qulay interfeys va tezkor ishlash imkoniyatlarini taqdim etgan bo'lsa-da, ma'lumotlar xavfsizligi borasida ayrim tashvishlar mavjudligi kuzatildi.



1-rasm. Foydalanuvchilarning e-Stat 3.0 tizimidan qoniqish darajasi [5]

Yuqoridagi grafikda foydalanuvchilarning e-Stat 3.0 tizimidan qoniqish darajasi aks ettirilgan bo'lib, ko'rinib turibdiki, tezkorlik va foydalanish qulayligi eng yuqori baholangan omillar qatoriga kiradi. Foydalanuvchilarning 85% tizimdan foydalanish qulay deb topgan, 90% esa tezkor ishlash xususiyatidan mamnun. Shu bilan birga, ishonchlilik darajasi 80% deb baholangan bo'lsa, ma'lumotlar xavfsizligi atigi 70% ni tashkil etib, kelgusida bu borada himoya mexanizmlarini kuchaytirish zarurligi ta'kidlangan. Tadqiqot davomida kichik biznesda AKT texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha bir qator ilmiy bo'shliqlar aniqlangan. Ayni paytda elektron hisob berish tizimlarining iqtisodiy samaradorligi yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, kichik biznes vakillarining texnologiyalarga moslashish darajasi, tizim innovatsiyalarini rivojlantirish va xalqaro tajribalarni o'rganish bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

Kelgusidagi tadqiqotlar quyidagi yo'nalishlarga qaratilishi lozim:


1. Axborot xavfsizligini ta'minlash – Elektron tizimlarga bo'lgan ishonchni oshirish uchun blokcheyn texnologiyalari, zamonaviy shifrlash usullari va huquqiy kafolatlarni takomillashtirish zarur.

2. AKT infratuzilmasini yaxshilash – Hududiy tadbirkorlik subyektlari uchun internet sifati va texnik qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish kerak.

3. Xalqaro tajribalarni o'rganish – Janubiy Koreya, Germaniya va AQSh kabi mamlakatlarda kichik biznesning elektron hisob berish tizimlariga moslashuvi bo'yicha ilg'or tajribalarni O'zbekistonda tatbiq etish imkoniyatlarini o'rganish lozim.

Tadqiqot natijalari Schumpeterning innovatsion rivojlanish nazariyasi va Porterning raqobat afzalliklari nazariyasi asosida baholandi. AKT innovatsiyalarining kichik biznesda tatbiq etilishi ushbu subyektlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi va ma'muriy jarayonlarni avtomatlashtirish orqali samaradorlikni ta'minlaydi. Ushbu tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, natijalar kichik biznes vakillariga elektron hisob berish tizimidan samarali foydalanish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Ushbu tadqiqot kichik biznes subyektlari uchun elektron hisob berish tizimlarining samaradorligini baholash, ularni amaliyotga tatbiq etishdagi asosiy to'siqlarni aniqlash va tizimni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asos yaratishga xizmat qildi.



Natijalar shuni ko'rsatdiki, e-Stat 3.0 tizimi hisob berish jarayonlarini soddalashtirib, vaqt va resurslarni tejash, ma'lumotlarning ishonchligini oshirish va inson xatolarini kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, foydalanuvchilar tomonidan axborot xavfsizligi va texnik qo'llab-quvvatlash tizimi bo'yicha muammolar mavjudligi aniqlangan. Kelgusida olib boriladigan tadqiqotlar kichik biznes subyektlarining raqamli tizimlarga moslashish darajasini yanada chuqur o'rganish, xalqaro tajriba bilan taqqoslash va yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish yo'nalishlarida olib borilishi zarur. Ushbu tadqiqot natijalari kichik biznesning raqamli rivojlanishi, iqtisodiy samaradorlik va AKT imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan strategiyalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun e-Stat 3.0 avtomatlashtirilgan statistik hisobot tizimini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi va boshqaruv jarayonlariga ta'sirini baholashga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu tizimning keng qo'llanilishi kichik biznes vakillarining vaqt va resurslarni tejashiga, hisobot topshirish jarayonlarini soddalashtirishga, ma'lumotlar ishonchligini oshirishga va boshqaruv samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. An'anaviy hisobot topshirish jarayonida ko'p vaqt va mablag' sarflanishi tadbirkorlar uchun ortiqcha ma'muriy yuk bo'lib qolayotganligi aniqlangan bo'lsa, elektron tizim orqali ushbu muammolarni bartaraf etish mumkinligi tasdiqlandi. Biroq, tizimni to'liq joriy etishda AKT infratuzilmasining notekis rivojlanganligi, tadbirkorlarning

raqamli ko'nikmalarining yetarli emasligi hamda axborot xavfsizligi bo'yicha xavotirlar mavjudligi asosiy to'siqlar sifatida aniqlangan. Shuningdek, kichik biznes subyektlarining aksariyati elektron tizimlar orqali hisob topshirishga qiziqish bildirgan bo'lsalar ham, ba'zilar texnologik qiyinchiliklar va texnik qo'llab-quvvatlash tizimining sust ishlashidan shikoyat qilgan. Shu sababli, elektron hisob berish tizimini yanada takomillashtirish, foydalanuvchilar uchun qulay interfeys yaratish va AKT bo'yicha bilimlarni oshirishga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqish zarurligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari kichik biznesning raqamli transformatsiyasini qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha muhim ilmiy va amaliy tavsiyalarni ilgari surishga asos bo'lib xizmat qiladi. Davlat tomonidan elektron tizimlardan foydalanishni rag'batlantirish, AKT infratuzilmasini rivojlantirish va kichik biznes vakillariga texnologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlarida qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rilishi lozim. Ayniqsa, axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rish, raqamli tizimlar orqali topshiriladigan hisobotlarning shaffofligi va maxfiyligi bo'yicha huquqiy asoslarni mustahkamlash zarur. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari uchun AKTni kengroq joriy etish bo'yicha moliyaviy imtiyozlar, soliq yengilliklari va texnik yordam mexanizmlarini yo'lga qo'yish tizimdan foydalanish darajasini sezilarli oshirishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlar kichik biznesning raqamli tizimlarga moslashish darajasi, texnologik infratuzilmani yaxshilash choralari va elektron hisobot berish tizimlarining uzoq mudatli iqtisodiy ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilishi lozim.

Xalqaro tajribani o'rganish va ilg'or davlatlarning kichik biznesga qaratilgan AKT strategiyalarini tahlil qilish ushbu sohani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Janubiy Koreya, Xitoy, Germaniya va AQSh kabi mamlakatlarning tajribasi kichik biznesning raqamli transformatsiyasi bo'yicha innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga ko'maklashishi mumkin. Bundan tashqari, kelajak tadqiqotlarida blokcheyn texnologiyalari, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari orqali statistik hisobotlarni yanada takomillashtirish hamda kichik biznes uchun qulay va ishonchli muhit yaratish yo'llari chuqur tahlil qilinishi zarur. Ushbu tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlari uchun innovatsion texnologiyalarning amaliy qo'llanilishini kengaytirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish bo'yicha strategik qarorlarni qabul qilishga ilmiy asos yaratadi. Shu bilan birga, AKT infratuzilmasini kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha davlat siyosatini takomillashtirish hamda kichik biznesning texnologik imkoniyatlarini oshirish uchun uzoq muddatli rejalarni ishlab chiqish zarurligi aniqlanadi. Bu esa tadbirkorlik muhitining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikka erishish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Arzikulov Otabek Ali o'g'li Jizzax politehnika instituti dotsent / Арзикулов Отабек Али оглы Доцент Джизакского политехнического института / Arzikulov Otabek Ali oglu Associate Professor, Jizzakh Polytechnic Institute**

► otabekarzikulov0791@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0009-3279-4910>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Арзикулов О. Худудларда кичик тadbirkorlikнинг иқтисодий фаолиятини статистик баҳолаш. // Иқтисодиёт ва таълим. – Тошкент, 2022. 1-сон. 187-192-бетлар.
- [2]. Арзикулов О. Кичик бизнес соҳаси ривожланишига таъсир қилувчи омилларни статистик баҳолаш. // Ўзбекистон статистика ахборотномаси. – Тошкент, 2021. 4-сон.
- [3]. Арзикулов О. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида кичик тadbirkorlik фаолиятининг ҳудудий ривожланишини иқтисодий-статистик таҳлили. // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар (Economics and Innovative Technologies). 1/2022, январь-февраль (08.00.00; № 00057).
- [4]. Arzikulov O. Artificial intelligence to increase the efficiency of small businesses. // «International Scientific Journal Theoretical & Applied Science» Scopus 08 (100), 412-415 b. Published: 30.08.2021
- [5]. Арзикулов О. Экономико-статистический анализ развития малого бизнеса в Джизакской области в условиях модернизации экономики. // Экономика, бизнес, инновации: сборник статей XVIII Международной научно-практической конференции. – Пенза: МЦНС «Наука и просвещение», 2022. – С.103-107.
- [6]. Арзикулов О. Кичик тadbirkorlik фаолиятини статистик тадқиқ этишнинг асосий жиҳатлари // «Рaqамли иқтисодиётни шакллантириш шароитида статистика тизимини янада такомиллаштириш» мавзусидаги халқaro илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2022 йил 18 март. 404-407-бетлар.
- [7]. Арзикулов О. Развитие малого предпринимательства в условиях инновационной экономики. // «Фан ва таълимни ривожлантиришда ёшларнинг ўрни» мавзусидаги республика илмий анжуман материаллари тўплами. 2021 йил 30 сентябрь. 107-111-бетлар.
- [8]. Arzikulov O. Statistical study of direct maintenance of small business activities in the regions // International Journal of Economic and Business Review-Peer Reviewed Journal. Volume - 10, Issue - 6, June 2022| e-ISSN: 2347 - 9671| p- ISSN: 2349 – 0187. India

Inson kapitali
iqtisodiyoti

Экономика
человеческого
капитала

Economics of
human capital